



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
VI-QISM**

Google Scholar



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
VI-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

ISLOMIY BANK FAOLIYATI TO'G'RISIDAGI QONUNNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH: O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNING KONTSEPTUAL, METODOLOGIK VA INSTITUTIONAL ASOSLARI	12
Abdullayev Azamat Akbar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В ОРГАНИЗАЦИЯХ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ОПЕРАТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ЦИКЛА	17
Джуманиязова Сабина Михайловна	
PAHTA TOZALASH USKUNALARI DETALLARINING XIZMAT MUDDATINI OSHIRISH UCHUN GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIALLAR TARKIBINI ISHLAB CHIQUISH	22
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI: TAHLIL VA NATIJALAR.....	29
Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li	
Akbarov Diyorbek Ashirali o'g'li	
TRANSFORMING CORPORATE GOVERNANCE TO MEET THE CHALLENGES OF MODERN BUSINESS MODELS.....	32
F. Djalilov	
O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ULARNI BAHOLASH	41
Abdullayev Axror Jaxbarovich	
ЭКОНОМИКА ГОРОДСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ: ПОТЕНЦИАЛ ЭЛЕКТРИФИКАЦИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	47
Махкамова Надира Саидмуратовна	
MINTAQA TUMANLARI O'RTASIDAGI INVESTITSIYA VA BANDLIK NOMUTANOSIBLIK LARI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	55
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
BUXORO VILOYATI IQTISODIYOTINING STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYASI: AGRAR MODEL DAN DIVERSIFIKATSIYALASHGAN TUZILMAGA O'TISH TENDENSIYALARI (2020-2024-YILLAR)	60
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY PRINSIPLARINI JORIY ETISH.....	65
Tashmatov Shuhrat Hamrayevich	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR KO'RSATISH IMKONIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	71
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
O'ZBEKISTONDA AVLODLARARO TRANSFERTLARNING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY MAZMUNI	77
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna	
To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li	
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI	83
Hamidova Shahzoda Odiljanovna	



IQTISODIYOTDA SHAFFOFLIK, ISHONCH VA SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURLIGI.....	88
Sabirova Nodira Komil qizi	
RAQAMLI VALYUTALARNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	95
Nabiyeva Zilola Saydulla qizi	
XORAZM VILOYATIDA HUDUDIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI	101
Avazbek Xalbekov	
IMPLEMENTATION OF PARETO ANALYSIS, SENSITIVITY ANALYSIS AND CVP MODELING TOOLS AT SATURN METAL LLC	108
Musaeva Shoira Azimovna	
YOG'-MOY KORXONALARINING TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHDA SCOR (SUPPLY CHAIN OPERATIONS REFERENCE) MODELIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	116
Yuldashev Abduxakim Abdulkarimovich	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИЗНАНИЯ РЕЗУЛЬТАТОВ НЕФОРМАЛЬНОГО И ИНФОРМАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	122
Анвар Аллабергенов	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLARNING YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI.....	128
Allanazarova B.K.	
BIOIQTISODIYOT-BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARIDAN BIRI.....	135
Azimova Muxlisa Alisherbekovna	
KICHIK BIZNES TIZIMINING SINERGETIKEKONOMETRIK MODELINI ISHLAB CHIQUISH VA UNING PARAMETRLARINI BAHOLASH.....	139
Atamuratova Gulrux Muzafarovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	145
Xoltoyev Mirusmon Mirxamit o'g'li	
KIMYO SANOATI KORXONALARINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV DARAJASINI NORMALLASHTIRILGAN ENTROPIYA INDEKSI ASOSIDA BAHOLASH.....	149
Razikov Otabek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA YO'NALISHLARI.....	157
Matkabalova Dilorom Xalilullayevna	
MINTAQA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY KO'RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH. (Xorazm viloyati misolida)	165
Bekjanov Dilmurod Yuldashevich	
Narmetova Dilafruz Azamatovna	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	170
Ахмедова Шахноза Козим кизи	
KREDITLASH VA MIKROQARZ TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI	175
Elbekov Jasur Ergash o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AHOLINING UZOQ MUDDATLI FOYDALANILADIGAN TOVARLAR BILAN TA'MINLANISH DARAJASINI MODELASHTIRISH VA PROGNOZLASH.....	181
Sharipova Bibijon Baxtiyorovna	



ВНЕДРЕНИЕ ЦВЕТОВОЙ СИСТЕМЫ ПАКЕТОВ ДЛЯ РАЗДЕЛЬНОГО СБОРА ТВЁРДЫХ БЫТОВЫХ ОТХОДОВ В Г. ТАШКЕНТЕ: АДАПТАЦИЯ КОРЕЙСКОЙ МОДЕЛИ НА УРОВНЕ ДОМОХОЗЯЙСТВ	189
Джусупов Кубанычбек	
ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY MEKANIZMLARI: ZAMONAVIY YONDASHUV VA INNOVATSION YECHIMLAR.....	196
Shamuratov Shahzod Janibek o'g'li	
SHAHARSOZLIKDA BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASINI JORIY ETISH	200
Eshov Sherko'zi Asatulloevich	
THE ROLE OF TAXES IN THE FORMATION OF LOCAL BUDGET REVENUES	205
Kimsanbaeva Maftuna Bakhodirovna	
DETERMINANTS OF STAKEHOLDER SATISFACTION WITH CUSTOMS CLEARANCE IN UZBEKISTAN: AN EMPIRICAL ANALYSIS	209
Khanifakhon Solikhova	
BANDLIKNI TA'MINLASHNING INNOVATSION YO'NALISHLARI (Xorazm viloyati misolida).....	213
Z. Sh. Matniyozova	
JIZZAX VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI VAHOLASH VA ISHLAB CHIQRISH HAJMINI PROGNOZLASH	218
Umirova Gulmira Shodiboy qizi	
ИННОВАЦИОННЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ НИЗКОУГЛЕРОДНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА.....	224
Расулкулов Жамшидбек Акрамулович	
KORPORATIV BARQARORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK JAVOBGARLIKNING O'RNI VA AHAMIYATI.....	233
Komilova Guli Bagandik qizi	
THE ROLE OF DIGITAL INFRASTRUCTURE IN PROMOTING GREEN ECONOMIC GROWTH: EVIDENCE FROM CENTRAL ASIAN ECONOMIES.....	238
Eshboyev Mirjalol Baxrom o'g'li	
Ozatbekova Ozodaxon Nodirbek qizi	
ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОЕ ИНТЕРВАЛЬНОЕ ОЦЕНИВАНИЕ СРЕДНЕГО ЗНАЧЕНИЯ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ, ПРИТЯГИВАЮЩЕГОСЯ К УСТОЙЧИВОМУ РАСПРЕДЕЛЕНИЮ.....	250
Турсунов Гафур Таирович	
TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY HISOBOTI MUSTAQIL AUDITINING MOHIYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: BANK FAOLIYATIGA XOS RISK OMILLARINI TASNIFLASH.....	259
Ibragimov Nodirbek Bahodir o'g'li	
ДЕМОКРАТИК TANLOV VA PROGRESSIV SOLIQQA TORTISHNING BARQARORLIGI	266
Malika Sharipova Maxmudjon qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA YASHIL ENERGETIKA MANBALARINI UTILIZATSIYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	273
Ibadov Shoxrux Axmatilloevich	
EKONOMETRIK MODELASHTIRISH ASOSIDA TEMIR YO'L TRANSPORTI IQTISODIY FAOLIYATINI PROGNOZLASH: 2030-YILGACHA SSENARIY TAHLILI.....	277
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA MARKETING DASTURINING O'RNI.....	283
Musayeva Shoira Azimovna	
O'ZBEKISTONDA ISH BERUVCHINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG'URTA QILISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	289
Karimberdiyeva Dilrabo Rasulovna	



BANK TAVAKKALCHILIKLARINI BOSHQARISHDA SUG'URTA INSTRUMENTLARINI QO'LLASH AMALIYOTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	296
Matkarimova Ayman Jengisbaevna	
O'ZBEKISTONDA AGROSUG'URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY VA HUQUQIY OMILLARI	303
Jo'rayeva Sarvinoz Baxtiyor qizi	



O'ZBEKISTONDA AGROSUG'URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY VA HUQUQIY OMILLARI

Jo'rayeva Sarvinoz Baxtiyor qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

E-mail: SarvinozJB123@gmail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda agrosug'urta bozorini rivojlantirishga ta'sir etuvchi iqtisodiy va huquqiy omillar tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida tizimli, qiyosiy-huquqiy, iqtisodiy-statistik tahlil va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanilgan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tabiiy-iqlim tavakkalchiliklariga yuqori darajada bog'liqligi, sug'urta xizmatlariga talab, davlat subsidiyalari, qayta sug'urtalash, zararlarni baholash va raqamli monitoring mexanizmlarining o'zaro aloqasi tahlil qilingan. O'zbekiston agrosug'urta bozorining institutsional-huquqiy asoslari Turkiya, Ispaniya va jahon amaliyoti bilan qiyoslangan. Tadqiqot natijasida mamlakatda agrosug'urtani rivojlantirish uchun zarur huquqiy asoslar yaratilgani, biroq sug'urta qamrovini kengaytirish, ochiq statistik ma'lumotlar bazasini shakllantirish, tariflarni tavakkalchilik darajasiga muvofiq tabaqalashtirish va qayta sug'urtalash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi aniqlangan. Agrosug'urta xizmatlarini raqamlashtirish, indeksga asoslangan sug'urta mahsulotlarini joriy etish hamda davlat, banklar va sug'urta tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: agrosug'urta, qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklari, sug'urta bozori, davlat subsidiyasi, sug'urta mukofoti, qayta sug'urtalash, indeksli sug'urta, raqamli monitoring, huquqiy tartibga solish.

Аннотация. В статье исследованы экономические и правовые факторы, влияющие на развитие рынка агрострахования в Узбекистане. В ходе исследования использованы методы системного, сравнительно-правового, экономико-статистического анализа и научного обобщения. Проанализированы взаимосвязи между высокой зависимостью сельскохозяйственного производства от природно-климатических рисков, спросом на страховые услуги, государственными субсидиями, перестрахованием, оценкой ущерба и механизмами цифрового мониторинга. Институционально-правовые основы рынка агрострахования Узбекистана сопоставлены с опытом Турции, Испании и мировой практикой. Результаты исследования показали, что в стране сформирована необходимая правовая база для развития агрострахования, однако сохраняется необходимость расширения страхового охвата, формирования открытой базы статистических данных, дифференциации страховых тарифов в соответствии с уровнем риска и совершенствования механизмов перестрахования. Разработаны предложения по цифровизации услуг агрострахования, внедрению индексных страховых продуктов и укреплению сотрудничества между государством, банками и страховыми организациями.

Ключевые слова: агрострахование, сельскохозяйственные риски, страховой рынок, государственная субсидия, страховая премия, перестрахование, индексное страхование, цифровой мониторинг, правовое регулирование.

Abstract. This article examines the economic and legal factors influencing the development of the agricultural insurance market in Uzbekistan. The study employs systematic, comparative legal, economic-statistical analysis, and scientific generalization methods. It analyzes the interrelationship between the high dependence of agricultural production on natural and climatic risks, demand for insurance services, government subsidies, reinsurance, loss assessment, and digital monitoring mechanisms. The institutional and legal framework of Uzbekistan's agricultural insurance market is compared with the experiences of Türkiye, Spain, and international practice. The findings indicate that the country has established the necessary legal framework for the development of agricultural insurance; however, there remains a need to expand insurance coverage, develop an open statistical database, differentiate insurance premiums according to risk levels, and improve reinsurance mechanisms. The study also proposes measures for the digitalization of agricultural insurance services, the introduction of index-based insurance products, and the strengthening of cooperation among the government, banks, and insurance companies.

Keywords: agricultural insurance, agricultural risks, insurance market, government subsidy, insurance premium, reinsurance, index-based insurance, digital monitoring, legal regulation.



KIRISH

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston milliy iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri bo'lib, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirish, qishloq aholisining bandligi va daromadlarini shakllantirish hamda eksport tushumlarini ko'paytirishda muhim o'rin egallaydi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi qariyb 20 foizni tashkil etib, tarmoqda yiliga 467 trillion so'mlik mahsulot yaratiladi va 3,5 million nafar fuqaro mehnat qiladi. Meva-sabzavot, yangi va qayta ishlangan agrar mahsulotlar mamlakat umumiy eksportining qariyb uchdan bir qismini ta'minlamoqda (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati, 2025). Mazkur ko'rsatkichlar agrar tarmoqdagi ishlab chiqarish barqarorligi nafaqat alohida fermer va dehqon xo'jaliklarining moliyaviy holatiga, balki mamlakatning makroiqtisodiy muvozanati, ichki bozordagi narxlar barqarorligi va ijtimoiy farovonlik darajasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tabiiy-iqlim sharoitlariga yuqori darajada bog'liqligi bilan iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan ajralib turadi. Suv tanqisligi, qurg'oqchilik, kuchli yog'ingarchilik, do'l, sel, sovuq urishi, yuqori harorat, o'simliklar kasalliklari va zararkunandalari, chorva hayvonlarining yuqumli kasalliklari, shuningdek, bozor narxlarining keskin o'zgarishi agrar ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy natijalariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jahon bankining baholashlariga ko'ra, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq suv tanqisligi, qurg'oqchilik, ekstremal harorat va yog'ingarchilikning beqarorlashuvi O'zbekiston iqtisodiy o'sishi hamda qishloq aholisi daromadlari uchun tizimli xavf tug'dirmoqda (Jahon banki, 2023). Bunday sharoitda sug'urta agrar ishlab chiqaruvchilarning favqulodda zararlarini qoplash vositasi bo'lish bilan cheklanmay, ularning kreditga layoqatlilikini saqlash, investitsion faolligini qo'llab-quvvatlash va ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi moliyaviy barqarorlashtirish instituti sifatida namoyon bo'ladi.

Agrosug'urta bozorining samarali faoliyat yuritishi tavakkalchiliklarni ko'p sonli sug'urta ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarning kutilmagan yo'qotishlarini kamaytirish hamda davlat budjetining tabiiy ofatlar oqibatlarini qoplash bilan bog'liq favqulodda xarajatlarini maqbullashtirish imkonini beradi. Biroq agrosug'urta bozorining shakllanishi oddiy talab va taklif munosabatlari bilan cheklanmaydi. Mazkur bozorda tavakkalchiliklarning hududiy jihatdan bir vaqtda yuzaga kelishi, sug'urta hodisasi ehtimolini aniq baholashning murakkabligi, uzoq muddatli meteorologik va hosildorlik ma'lumotlarining yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi, axborot nomutanosibliigi, sug'urta mukofotlarini to'lash imkoniyatining cheklanganligi hamda zararlarini mustaqil baholash mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmaganligi kabi omillar mavjud. Shu sababli agrosug'urta bozori davlat tomonidan muvofiqlashtirish, sug'urta mukofotlarini subsidiyalash, qayta sug'urtalash, mustaqil ekspertiza va raqamli monitoring mexanizmlarini o'zaro uyg'unlashtirishni talab qiladi.

O'zbekistonda agrosug'urtaning institutsional va huquqiy asoslarini takomillashtirish borasida so'nggi yillarda sifat jihatidan yangi bosqichga o'tildi. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi O'RQ-730-son "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni sug'urta bozorini tartibga solish, sug'urtalovchilarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va sug'urta xizmatlari iste'molchilarining manfaatlarini himoya qilishning umumiy huquqiy asoslarini belgiladi (O'zbekiston Respublikasi, 2021). O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 14-apreldagi O'RQ-1056-son "Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonuni esa agrosug'urta munosabatlarini alohida tartibga soluvchi maxsus huquqiy bazani shakllantirdi. Ushbu Qonunda sug'urtalanadigan tavakkalchiliklar, sug'urta shartnomasini tuzish, qayta sug'urtalash, sug'urta mukofotlari bo'yicha subsidiyalar ajratish, zarar miqdorini aniqlash, sug'urta tovonini to'lash, mustaqil ekspertlar faoliyati hamda Qishloq xo'jaligi sug'urtasi jamg'armasini tashkil etish bilan bog'liq munosabatlar belgilab berildi.

Mazkur huquqiy islohotlarning mantiqiy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-noyabrdagi PF-223-son Farmoni bilan qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urta qilish mexanizmini samarali tashkil etishning institutsional choralari belgilandi (O'zbekiston Respublikasi, 2025b). Shu tariqa, mamlakatda agrosug'urtani faqat tijorat sug'urta mahsuloti sifatida emas, balki davlat, sug'urta tashkilotlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar, moliya institutlari, mustaqil ekspertlar va qayta sug'urtalovchilar o'rtasidagi kompleks iqtisodiy-huquqiy munosabatlar tizimi sifatida rivojlantirish uchun zarur normativ asos yaratildi. Biroq huquqiy normalarning qabul qilinishi o'z-o'zidan agrosug'urta qamrovining kengayishi va bozor samaradorligining oshishini kafolatlamaydi. Ularning amaliy natijadorligi sug'urta tariflarining iqtisodiy asoslanganligi, subsidiyalash mexanizmining manzilliligi, fermerlarning sug'urta madaniyati, raqamli ma'lumotlar sifati, zararlarini baholashning xolisligi hamda sug'urta va qayta sug'urta tashkilotlarining moliyaviy imkoniyatlariga bog'liqdir.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Agrosug'urta bozorini rivojlantirish agrar tavakkalchiliklarni boshqarish, fermerlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va davlat qo'llab-quvvatlashi bilan bog'liq. A.A. Yadgarov uni iqlim o'zgarishi oqibatlarini qoplash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlovchi muhim mexanizm deb baholaydi.

Muradullayev va Mustafaqulov sug'urta tariflarining yuqoriligi hamda qurg'oqchilik xavflari to'liq qoplanmasligini muammo sifatida ko'rsatib, indeksli sug'urtani taklif etadi. Burkhanov iqlim xavflari kuchayishi sug'urta tizimini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi, Iskandarov esa davlat subsidiyalari shaffof va adolatti bo'lishi kerakligini qayd etadi.

Xorijiy tadqiqotchilar indeksli sug'urtaning xarajatlarni kamaytirishini, lekin bazis tavakkalchiligi muammo ekanini ta'kidlaydilar. Miranda va Glauber qayta sug'urtalash va davlat ishtirokisiz tizim barqaror bo'lmashligini ko'rsatadi, Jensen esa indeksli sug'urtaning samaradorligi ma'lumot sifati va ishonchga bog'liqligini ta'kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda agrosug'urta bozorini rivojlantirishga ta'sir etuvchi iqtisodiy va huquqiy omillarni kompleks baholashga asoslangan tizimli yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasining sug'urta faoliyati va qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urtalashga oid normativ-huquqiy hujjatlari, vakolatli davlat organlarining rasmiy statistik ma'lumotlari, xalqaro moliya institutlarining hisobotlari hamda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi.

Tahlil jarayonida qiyosiy-huquqiy, iqtisodiy-statistik, tizimli va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Qiyosiy-huquqiy usul orqali agrosug'urta munosabatlarini tartibga soluvchi amaldagi qonunchilik normalari va ularning bozor mexanizmlariga ta'siri baholandi. Iqtisodiy-statistik tahlil asosida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tavakkalchilik darajasi, sug'urta xizmatlariga talab, davlat subsidiyalari va sug'urta qamrovi o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi. Tizimli yondashuv esa davlat, sug'urta tashkilotlari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari, banklar va qayta sug'urtalovchilar o'rtasidagi institutsional munosabatlarni yagona mexanizm sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqot doirasida agrosug'urta bozorining rivojlanganlik darajasi sug'urta mahsulotlarining mavjudligi, sug'urta tariflarining iqtisodiy asoslanganligi, zararlarni baholash mexanizmlarining shaffofligi, qayta sug'urtalash imkoniyatlari, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasi va huquqiy kafolatlarning samaradorligi kabi mezonlar asosida baholandi. Olingan natijalar O'zbekiston iqtisodiyoti, agrar siyosati va milliy sug'urta bozorining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ilmiy jihatdan umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda agrosug'urta bozorini rivojlantirish zarurati, birinchi navbatda, agrar ishlab chiqarishning iqtisodiy ko'lami va tabiiy-iqlim tavakkalchiliklariga yuqori darajada bog'liqligi bilan belgilanadi. 2025-yilda mamlakatda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 508 711,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 4,4 foizga oshgan. Mazkur hajmning 243 007,7 mlrd so'mi dehqonchilik, 265 703,4 mlrd so'mi esa chorvachilik mahsulotlari hissasiga to'g'ri kelgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 62,3 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 29,4 foizi fermer xo'jaliklari hamda 8,3 foizi qishloq xo'jaligi tashkilotlari tomonidan ishlab chiqarilgan (Milliy statistika qo'mitasi, 2026). Ushbu tarkib agrar ishlab chiqarish subyektlarining katta qismi kichik va tarqoq xo'jaliklardan iborat ekanligini ko'rsatadi. Natijada an'anaviy individual sug'urta shartnomalarini tuzish, sug'urta obyektlarini joyida ko'zdan kechirish va zararlarni baholash bilan bog'liq tranzaksiya xarajatlari ortadi.

Milliy sug'urta bozorining umumiy moliyaviy imkoniyatlari 2025-yilda sezilarli darajada kengaygan. Sug'urta mukofotlari hajmi 2024-yildagi 9,8 trln so'mdan 13,5 trln so'mga, sug'urta to'lovlari esa 2,2 trln so'mdan 3,0 trln so'mga yetgan. Sug'urta tashkilotlarining jami ustav kapitali 4,006 trln so'mni, investitsiyalari 9,6 trln so'mni, faol sug'urta tashkilotlari soni esa 36 tani tashkil etgan (Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, 2026). Hisob-kitoblarga ko'ra, umumiy sug'urta mukofotlarining qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmiga nisbati 2,65 foizni, sug'urta bozorining umumiy to'lov darajasi esa 22,2 foizni tashkil etadi. Biroq birinchi ko'rsatkichni agrosug'urta penetratsiyasi sifatida talqin qilish mumkin emas, chunki rasmiy sug'urta statistikasi qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklari bo'yicha sug'urta mukofotlari, sug'urta summasi, sug'urtalangan maydon va sug'urta to'lovlari alohida segment sifatida to'liq ochib bermaydi. Mazkur axborot cheklovi agrosug'urta bozorining real hajmi va zarar koeffitsiyentini ekonometrik baholash imkoniyatini toraytiradi (1-jadval).



O'zbekiston va xalqaro agrosug'urta tizimlarining asosiy iqtisodiy-institutsional ko'rsatkichlari

Mamlakat yoki bozor	Davr	Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar	Davlat va huquqiy qo'llab-quvvatlash mexanizmi	Hisoblangan yoki natijaviy indikator
O'zbekiston	2025	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari - 508,7 trln so'm; umumiy sug'urta mukofotlari - 13,5 trln so'm; sug'urta to'lovlari - 3,0 trln so'm; sug'urtalovchilar - 36 ta	Sug'urta mukofotining 50 foizini budjetdan qoplash; Qishloq xo'jaligi sug'urtasi jamg'armasi; 2030-yilgacha sug'urta qamrovini 50 foizga yetkazish; imtiyozli kreditlar bilan sug'urtani bosqichma-bosqich integratsiya qilish	Umumiy sug'urta mukofotlari / agrar mahsulot - 2,65%; umumiy to'lov darajasi - 22,2%
Turkiya - TARSİM	2024	3,3 mln polis; 866 ming sug'urtalangan ishlab chiqaruvchi va korxonalar; 1,1 trln turk lirasini sug'urtalangan agrar aktivlar; 35,6 mln dekar maydon; 21,5 mln bosh hayvon; 12 mlrd turk lirasini to'lov	Davlat-xususiy sheriklikka asoslangan sug'urta puli; sug'urta mukofotining mahsulotga qarab 50-70 foizini davlat tomonidan subsidiyalash; markazlashtirilgan qayta sug'urtalash va zararlarni baholash	Sug'urtalangan aktivlar qiymati bir yilda 70% ga oshgan
Ispaniya - Agroseguro	2024	Sug'urta mukofotlari - 1,032 mlrd yevro; sug'urtalangan kapital - 18,153 mlrd yevro; sug'urta to'lovlari - 712 mln yevro	Ko'p tomonlama davlat-xususiy sheriklik, koassurans, davlat subsidiyasi va katastrofik qayta sug'urtalash tizimi	To'lovlar/mukofotlar - 69,0%; sug'urtalangan kapital/mukofot - 17,6 baravar; mevali daraxtlar qamrovi - 80%, dala ekinlari - 72%
Jahon agrosug'urta bozori	2019/2020	Jami sug'urta mukofotlari - qariyb 35 mlrd AQSh dollari; AQSh - 32%, Xitoy - 29%, Hindiston - 11%, Fransiya - 4%, Kanada - 4%	Yetakchi bozorlarda davlat subsidiyasi, davlat qayta sug'urtasi va xususiy sug'urtalovchilar faoliyatining kombinatsiyasi ustun	AQSh va Xitoyning birgalikdagi ulushi - 61%

Manba: Milliy statistika qo'mitasi (2026), Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (2026), TARSİM (2025), Agroseguro (2025) va Jahon banki (2025) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

O'zbekistonda 2025-yilda qabul qilingan maxsus normativ-huquqiy hujjatlar agrosug'urtani rivojlantirishning institutsional modelini tubdan o'zgartirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-223-son Farmonida sug'urta mukofotining 50 foizini budjet mablag'lari hisobidan qoplash va 2030-yilgacha qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urtalash qamrovini 50 foizga yetkazish maqsadi belgilangan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2025). Mazkur mexanizm agrar ishlab chiqaruvchilarning sug'urta xizmatlariga bo'lgan to'lovga qodir talabini oshirishga xizmat qiladi. Chunki davlat subsidiyasi mavjud bo'lmagan sharoitda yuqori korrelyatsiyalangan iqlim tavakkalchiliklari uchun hisoblangan aktuar tariflar, ayniqsa, kichik fermer va dehqon xo'jaliklari uchun moliyaviy jihatdan og'ir bo'lishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 772-son qarori bilan Qishloq xo'jaligi sug'urtasi jamg'armasining faoliyati, tariflarni belgilash, qayta sug'urtalash, mustaqil ekspertiza, sug'urta hodisasini ko'rib chiqish va sug'urta tovonini to'lash mexanizmlari belgilab berilgan. Sug'urta hodisasi bo'yicha qaror qabul qilish uchun o'n ish kuni, qaror qabul qilinganidan keyin tovonni to'lash uchun esa uch ish kuni nazarda tutilgan. Shuningdek, sun'iy yo'ldosh va uchuvchisiz uchish apparatlari ma'lumotlarini "Qishloq xo'jaligi sug'urtasi" axborot tizimiga integratsiya qilish belgilangan (Vazirlar Mahkamasi, 2025). Mazkur normalar zararlarni baholashdagi subyektivlikni qisqartirish, axborot assimetriyasini kamaytirish va sug'urta da'volarini ko'rib chiqishni tezlashtirish imkonini beradi.


Xalqaro tajriba agrosug'urta bozorining kengayishi xususiy sug'urtalovchilar imkoniyatlari bilangina ta'minlanmasligini ko'rsatmoqda. Turkiyada TARSİM tizimi doirasida 2024-yilda 3,3 mln dona sug'urta polisi rasmiylashtirilgan, sug'urtalangan ishlab chiqaruvchi va korxonalar soni 866 mingtaga yetgan. Sug'urtalangan agrar aktivlar qiymati bir yil davomida 70 foizga oshib, 1,1 trln turk lirasini tashkil etgan, sug'urta to'lovlari esa 12 mlrd turk lirasiga yetgan (TARSİM, 2025). Mazkur natijalar davlat subsidiyasi, yagona sug'urta puli, xususiy sug'urtalovchilar distributsiyasi hamda markazlashtirilgan qayta sug'urtalashning o'zaro uyg'unligi bilan izohlanadi.

Ispaniyaning Agroseguro tizimida 2024-yilda 1,032 mlrd yevro sug'urta mukofoti hisobiga 18,153 mlrd yevrolik agrar kapital sug'urta himoyasi bilan qamrab olingan. Sug'urta to'lovlari 712 mln yevroni tashkil etib,



to'lovlarning mukofotlarga nisbati qariyb 69 foizga yetgan. Mevali daraxtlarning 80 foizi, dala ekinlarining 72 foizi, uzumzorlarning 52 foizi va sitrus mahsulotlarining 43 foizi sug'urta bilan qamrab olingan (Agroseguro, 2025). Yuqori zarar koeffitsiyentiga qaramay, tizimning barqaror faoliyat yuritishi davlat subsidiyasi, sug'urtalovchilar o'rtasidagi koassurans va katastrofik tavakkalchiliklarning qayta sug'urtalanishi bilan ta'minlanadi (1-rasm).

2019/2020-yillarda jahon agrosug'urta mukofotlari bozorining tarkibi



Manba: Jahon banki, Disaster Risk Financing for Agriculture, 2025.
Izoh: jahon agrosug'urta mukofotlari hajmi taxminan 35 mlrd AQSh dollariga baholangan.

1-rasm. 2022-2026-yillarda jahon agrosug'urta mukofotlari bozorining tarkibi, foizda

Manba: Jahon banki, "Disaster Risk Financing for Agriculture" hisoboti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan (Jahon banki, 2025).

Rasm ma'lumotlariga ko'ra, jahon agrosug'urta mukofotlarining 32 foizi AQSh, 29 foizi Xitoy va 11 foizi Hindiston hissasiga to'g'ri keladi. AQSh va Xitoyning jami ulushi 61 foizni tashkil etishi agrosug'urta bozorining davlat tomonidan faol moliyaviy qo'llab-quvvatlanadigan mamlakatlarda yuqori darajada markazlashganini ko'rsatadi. Jahon agrosug'urta mukofotlari hajmi 2017-yildagi qariyb 15 mlrd AQSh dollaridan 2019-yilda 35 mlrd AQSh dollarigacha oshgan. Bunda bozor o'sishining asosiy qismi Xitoy, Hindiston va boshqa Osiyo mamlakatlari hisobiga shakllangan (Jahon banki, 2025).

O'tkazilgan tahlil natijasida O'zbekistonda agrosug'urta bozorini rivojlantirish uchun zarur huquqiy va tashkiliy poydevor yaratilgani, biroq uning iqtisodiy samaradorligi bir qator omillarga bog'liq ekanligi aniqlandi. Birinchidan, 50 foizlik subsidiya sug'urta mahsulotining fermer uchun narxini pasaytiradi, ammo subsidiyalarning uzoq muddatli fiskal barqarorligi va manzilliligi muntazam baholab borilishi lozim. Ikkinchidan, agrar mahsulotlarning 62,3 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklarida ishlab chiqarilishi sug'urta xizmatlarini raqamli kanallar, kooperativlar va guruhli polislar orqali tarqatishni talab qiladi. Uchinchidan, yagona axborot tizimi, sun'iy yo'ldosh monitoringi va mustaqil ekspertiza zararlarni baholash xarajatlarini kamaytirishi mumkin, biroq mazkur ma'lumotlar sug'urtalovchilar uchun ochiq, standartlashtirilgan va aktuar hisob-kitoblarda foydalanishga yaroqli bo'lishi zarur.

Rasmiy statistik hisobotlarda agrosug'urta mukofotlari, sug'urtalangan ekin maydonlari, sug'urta summasi, davlat subsidiyasi, zararlar va sug'urta to'lovlari hududlar hamda mahsulot turlari bo'yicha alohida e'lon qilinmasligi bozorning shaffofligini cheklovchi asosiy omil sifatida baholandi. Xalqaro tajriba agrosug'urtaning



barqaror rivojlanishi sug'urta mukofotini subsidiyalash bilangina emas, balki ishonchli ma'lumotlar bazasi, katastrofik qayta sug'urtalash, standartlashtirilgan zararlarni baholash, tezkor to'lovlar va davlat-xususiy sheriklikning aniq taqsimlangan vakolatlari orqali ta'minlanishini ko'rsatmoqda. Demak, O'zbekistonda yangi agrosug'urta modelining natijadorligi qamrovning nominal o'sishi bilan emas, balki sug'urtalangan maydon, to'lovlar darajasi, zararlarni tartibga solish muddati va agrar ishlab chiqaruvchilar moliyaviy barqarorligidagi real o'zgarishlar asosida baholanishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda agrosug'urta bozorini rivojlantirish uchun zarur huquqiy asoslar shakllantirilganini, biroq bozorning iqtisodiy samaradorligi hali to'liq ta'minlanmaganini ko'rsatdi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tabiiy-iqlim omillariga yuqori darajada bog'liqligi, agrar xo'jaliklarning tarqoq joylashuvi, sug'urta tariflarining nisbatan yuqoriligi va ishonchli statistik ma'lumotlarning yetishmasligi agrosug'urta qamrovini cheklamoqda. Shu bilan birga, sug'urta mukofotining 50 foizini davlat tomonidan subsidiyalash, Qishloq xo'jaligi sug'urtasi jamg'armasining tashkil etilishi va raqamli monitoring mexanizmlarining joriy etilishi bozorni rivojlantirish uchun muhim institutsional imkoniyat yaratadi.

Agrosug'urta bozorining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun sug'urta mukofotlari, sug'urtalangan maydonlar, zararlar va sug'urta to'lovlari bo'yicha alohida ochiq statistik bazani shakllantirish zarur. Sug'urta tariflari hudud, ekin turi va tavakkalchilik darajasidan kelib chiqib tabaqalashtirilishi, yuqori xavfli hududlarda esa indeksga asoslangan sug'urta mahsulotlari bosqichma-bosqich joriy etilishi lozim. Davlat subsidiyalari aniq mezonlar asosida manzilli taqsimlanishi va ularning iqtisodiy samaradorligi muntazam baholanib borilishi maqsadga muvofiq.

Sug'urta tashkilotlari, banklar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, imtiyozli kreditlarni sug'urta himoyasi bilan bog'lash hamda zararlarni baholashda sun'iy yo'ldosh, meteorologik va raqamli ma'lumotlardan foydalanishni kengaytirish zarur. Qayta sug'urtalash mexanizmlarini rivojlantirish va mustaqil ekspertiza tizimini takomillashtirish esa yirik tabiiy ofatlar oqibatida sug'urtalovchilarning moliyaviy barqarorligini saqlashga xizmat qiladi. Mazkur chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi O'zbekistonda agrosug'urta qamrovini kengaytirish, fermer va dehqon xo'jaliklarining moliyaviy himoyasini kuchaytirish hamda agrar sektorning barqaror rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida" O'RQ-730-son Qonuni. <https://www.lex.uz/ru/docs/-5739117?ONDATE=17.04.2025%2000>
2. O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 14-apreldagi "Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urta qilish to'g'risida" O'RQ-1056-son Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-7477632>
3. Yadgarov, A.A., Khotamov, I., Uktamov, K.F., Mahmudov, M.F., Yuldashev, G.T. va Najmiadinov, R.D. (2021). "Prospects for the Development of Agricultural Insurance System". *Alinteri Journal of Agriculture Sciences*, 36(1), 602–608. DOI: 10.47059/alinteri/V36I1/AJAS21085.
4. Muradullayev, N., Bobojonov, I. va Mustafaqulov, Sh. (2014). "Current State and Future Prospects of Crop Insurance in Uzbekistan". *Regional Economic Cooperation in Central Asia: Agricultural Production and Trade Conference Proceedings*. Halle (Saale), Germany. DOI: 10.22004/ag.econ.212559.
5. Shennayev, X.M. (2025). "Issues of Improving Agricultural Insurance in Uzbekistan". *Innovation Science and Technology*, 1(12). DOI: 10.5281/zenodo.18442121.
6. Barnett, B.J. va Mahul, O. (2007). "Weather Index Insurance for Agriculture and Rural Areas in Lower-Income Countries". *American Journal of Agricultural Economics*, 89(5), 1241–1247. DOI: 10.1111/j.1467-8276.2007.01091.x.
7. Miranda, M.J. va Glauber, J.W. (1997). "Systemic Risk, Reinsurance, and the Failure of Crop Insurance Markets". *American Journal of Agricultural Economics*, 79(1), 206–215. DOI: 10.2307/1243954.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
